

20-Aprel, 2025-yil

**GLOBAL LASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR TADQIQIQTASI
VA ISLOHOT OMILLARI**

Abduvahobova Sevinch

Osiyo xalqaro universiteti

1-FT (o ')-24 guruh talabasi.

O'qituvchisi: Ramazonova Salomat,

Osiyo xalqaro universitetining tayanch doktoranti.

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv davrida turkologiya fanining rivojlanish istiqbollari, yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar va ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu soha borasida olimlarning olib borayotgan tadqiqotlari turkologiyaga ta'siri yoritiladi.

Kalit So'zlar: globallashuv, turkologiya, ta'lim, ilmiy hamkorlik, madaniy meros, assimiliyatsiya.

Аннотация: В статье анализируются перспективы развития тюркологии в эпоху глобализации, возникающие актуальные проблемы, а также изменения в образовательном процессе. Также будет отмечено влияние исследований, проводимых учеными в этой области, на тюркологию.

Ключевые слова: глобализация, тюркология, образование, научное сотрудничество, культурное наследие, ассимиляция.

Annotation: this article analyzes the development prospects of the science of Turkology in the era of globalization, emerging urgent problems and changes in the educational process. It also highlights the impact of the research conducted by scientists in this field on Turkology.

Keywords: globalization, Turkology, education, scientific cooperation, cultural heritage, assimilation.

Bugungi globallashuv davrida o'z ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish har qanday xalqning o'zligini saqlab qolishdagi eng muhim omildir.

SHAVKAT MIRZIYOYEV.

KIRISH

Bugungi globallashuv davri hozirda barcha sohalar va jarayonlarga o'z ta'sirini chuqur tarzda ko'rsatmoqda. Shuningdek bu holat ayniqsa bizning tilimizga, milliy madaniyatlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu globallashuv davri bir tarafdan imkoniyatlar ikkinchi tarafdan esa xavf omillarini yuzaga keltirmoqda .

20-Aprel, 2025-yil

Tillar oilasi — kelib chiqishi jihatidan o‘zaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksikgrammatik xususiyatlariga ko‘ra o‘xhash tillar majmui. Tillar oilasini tashkil etuvchi tillarning bir-biriga yaqin yoki uzoq qarindoshligi tilshunoslikda qiyosiy tarixiy metod orqali belgilanadi. Oila tushunchasi terminologik jihatdan hajman o‘zgaruvchandir. Qarindosh tillarning ayni bir majmuasi goh guruh deb, goh oila deb atalishi mumkin. Jumladan, eroniy tillar o‘z ichki bo‘linishi nuqtai nazaridan oila deb, hindevropa tillari oilasiga mansubligi jihatidan esa guruh deb atalishi mumkin.

Tadqiqotchilarining e’tirof etishicha, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlari aholisi bronza davrining 3-2 ming yilligidan boshlab turkiy tilda so‘zlashgan. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatic belgi xususiyatlar hozirgi turkiy tillarning har birida u yoki bu miqdorda saqlanib qolgan. G‘.Abdurahmonovning ta’kidlashicha, turkiy xalqlarning ildizlari miloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug‘lar - qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. Har bir turkiy xalq va uning tilining shakllanishida bu urug‘larning biri asos bo‘lgan.

Keyingi vaqtida turkologiya sohasida bir qator yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Eng qadimgi sug‘d, ko‘k turk (o‘rxun-yenisey, turkiy run), eski uyg‘ur (turk) yozuvlaridagi yodgorliklami o‘rganishga oid izlanishlar olibborilmoxda. K.o‘kturk xoqonligi davrida yaratilgan Bug‘ut mangutoshi, uning tiklanish tarixi, yodgorlikda saqlanib qolgan sug‘dcha bitig talqini, sug‘d tilidagi arablar istilosini bilan bog‘liq nazariy qarashlar, ko‘k turk bitiglari, ko‘k turk yozuvining o‘ziga xos jihatlari, imlo xususiyatlari, ko‘k turk xatida bizgacha yetib kelgan To’nyuquq, O ‘ngin, Kul tegin, Bilga xoqon, Suji bitiglarining matni talqini, turkiy yozma yodgorliklar asosida rasmiy uslubning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, hujjat turlari haqida ma’lumotlar taqdim etilmoqda.

Turkologiya bu turkiy xalqlarning tili, adabiyoti, tarixi va etnalogiyasini o‘rganuvchi fandir. Uning rivojlanishi, nafaqat akademik doiralarda, balki milliy o‘zlikni anglashda ham muhim o‘rin tutadi. Turkologiyaning rivojlanishi hozirda faqatgina fan bilan cheklanganib qolgani yo‘q tarix va ma’daniyat bilan chambarchas holatda o‘rganilib kelmoqda. Turkologiya faniga xalqaro miqyosda yangi tadqiqot imkoniyatlari taqdim etilmoqda. Turkiy tillar o‘zaro fonetik, leksik, grammatic jihatdan juda yaqin tillardir. Ular til xususiyatlariga ko‘ra ko‘p jihatdan o‘zaro o‘xhash, biroq ayrim farqlar ham mavjud. O‘zbek tilining asosiy fonetik belgilariga e’tibor qaratilsa, uning ayrim shevalarida boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi 8-9 unli mavjud. Izoh sifatida aytish mumkinki, o‘zbek adabiy tilida esa 6 unli qabul etilgan. O‘zbek tilining ayrim shevalariga, boshqa bir qancha turkiy tillarga xos bo‘lgan lab va tanglay ohangdoshligi (singarmonizm) hodisasi o‘zbek adabiy tilida yo‘q, urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Turkiy tillarni o‘rganish, taqqoslash va sistemlashtirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar semenarlar va ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda. Bu borada jonbozlik ko‘rsatayotgan mashur turkolog olimlarimizni hissasi juda katta. Jumladan turkologiyaning eng nufuzli zamonaviy vakillaridan biri Talat Tekin turkiy tillarni tarixiy grammaticasi, qadimgi yodnomalarni tadqiq etgan, hamda Orxun-Yenisey bitiklarini tahlil qilgan va yangi o‘qishlar taklif qilgan.Yana bir turk olimlardan biri Nadir Devlet tarixiy turkologiya,

20-Aprel, 2025-yil

ayniqsa Sovet davri Turkiya xalqlari tarixi va diasporalari bilan shug'ullangan. Istanbuldagi Marmara Universitetida o‘z faoliyatini olib boradi. O‘zbekistonlik bo‘lgan tilshunoslarimiz Abdurahmon Abdug’afurov, Zohidjon Islomov kabilar zamonaviy lingvistik tahlillari bilan turkologiyaga yangi qarashlar olib kelganlar.

Turkologiyani o‘rganishga doir ta’limiy dasturlar globallashuv bilan uyg’unlashgan holda yangilanmoqda va interaktiv metodikalar keng qo‘llanilmoqda. Xorijiy universitetlarda turkiy tillarni o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda , bu esa til-madaniyatlararo almashinuvni kuchaytirmoqda. Globallashuv ta’sirida kichik turkiy tillar assimiliyatsiya xavfi ostida qolmoqda. Bu esa ularning tizimli ravishda o‘rganilishini talab qiladi. Shuningdek turkologiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishmovchiligi, ilmiy tadqiqotlarga moliyaviy taraflama qo‘llab-quvvatlashlarning yetarli emasligi soha rivojiga salbiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda deb aytsak xató bo‘lmaydi. Ushbu yuqorida ta’kidlangan muammolarning bartaraf etilishi uchun turkologiya fani oldiga o‘z maqsadlarini qo‘ymoqda va qator vazifalarni belgilamoqda. Bu jarayonda ilmiy innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik, raqamli texnalogiyalar va zamonaviy ta’lim metodlari muhim o‘rin tutadi. Turkologiya nafaqat bir soha sifatida, balki madaniy, tarixiy merosni o‘rganish va uni yosh avlodga yetkazish vositasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasan Eren Turk, “Turk tili va turkologiyaga oid maqolalar”, Anqara: turk tili qurumi nashriyoti, 2001-yil
2. Yunus Do‘g‘an “Globalashuv va til siyosati” , Istanbul : madaniyat nashriyoti 2015-yil.
3. Abduqodirov, A, ”Innovatsion pedagogika va ta’lim tizimini rivojlantirish masalalari” Toshkent: Fan va texnologiya(2020).
- 4.Saidazimova, G. N. (2021). Pedagogik kreativlik va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.,
- 5.Olimov, T. (2020). Bo‘lajak oliv ma’lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo‘nalishlari. Fan, ta’lim va amaliyotning integrasiysi, 1(1), 20-27.
- 6.Ramazonova S.S, Qoryog’diyev Z.O, „Xalq pedagogikasi tushunchasining tahlili va uning manbaalari”: Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 198-202. 2023.
7. Turksoy rasmiy veb sayti:www.turksoy.org